

UO'K: 373:78.

CHANG CHOLG'U ASBOBIDA IJRO ETISHNING METODIK KO'NIKMALARI.

Qodirberganova Dilrabo San'atovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

2-bosqich talabasi "Musiqa ta'limi va san'at" yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12657300>

Annotatsiya. Maqolada milliy cholg'u asbobimiz "chang" cholg'u asbobining ijro imkoniyatlari, takomillashishi, shtrixlari, mashhur ijrochilari keng yoritilgan. Metodik imkoniyatlari keltirib o'tilgan va pedagogik jihatdan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: chang, cholg'ular, ijro imkoniyatlari, o'zbek xalq cholg'ulari, professional, ixtisoslashtirilgan san'at maktabi.

METHODOLOGICAL SKILLS OF PERFORMING ON AN INSTRUMENT.

Abstract. In the article, the performance possibilities, improvements, lines, and famous performers of our national musical instrument "chang" are widely covered. Methodological possibilities are mentioned and revealed pedagogically.

Key words: dust, instruments, performance opportunities, Uzbek folk instruments, professional, specialized art school.

МЕТОДИЧЕСКИЕ НАВЫКИ ИСПОЛНЕНИЯ НА ИНСТРУМЕНТЕ.

Аннотация. В статье описаны возможности исполнения, усовершенствования, черты, известные исполнители нашего национального музыкального инструмента «чан». Указаны и педагогически раскрыты методологические возможности.

Ключевые слова: пыль, инструменты, исполнительские возможности, узбекские народные инструменты, профессионал, специализированная художественная школа.

Jahonda turli xil millatlar, turli xil urf-odatlar shu jumladan o'sha davlatlarning milliy musiqa sa'natlari, ko'ngil torlarini jumbushga keltiradigan chexirli ohanglari va milliy cholg'u asboblari mavjud. Shu jumladan "o'zbek" xalqining ham o'ziga xos milliy cholg'u asboblari bo'lib ularning sehirli ohanglari xozirgi kunga qadar butun dunyo axlining hayratiga sazovor bo'lib kelmoqda. O'zbek xalq cholg'u asbolarining o'ziga xos ovoz sehti mavjud, misol tariqasida milliy cholg'ularimizdan biri "Chang" cholg'u asbobiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak hattoki uzoq o'tmishda ham "chang" cholg'u asbobining sehrli ovozi insonlarning ko'nglidan chuqr joy egallagan. Hattoki Alisher Navoyi bobomiz xam o'zlarining "Sab'ai Sayyor" asarida "chang" cholg'u asbobiga quyidagicha ta'rif bergenlar

Sar qad olsa erdi maydin kom

Nastarinni chu aylabon gulfon

Chang olib torini tuzor edi

Lek jon rishtasin uzor edi!

Demagil chang, soliqni xam qad

Chang qadrlar bila bo'lib xam qad i

Bo'libon suluqdin muxbir,

Bosh qo'yilikda bo'lmog'I zokir.

Ko'xna Buxoroda yaratilgan Darvesh Ali Changiyning (XVIIasr)musiqa san'atiga bag'ishlangan risolasida Markaziy osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular xamda mohir soz ijrochilarixaqida nodir ma'lumotlar berilgan.

Risolada chang cholg'ulari homiysi –Zuhroga bag'ishlangan va 14 bosqichli chang cholg'usi ta'riflangan. Bu xildagi chang cholg'usining bir nusxasi bizgacha yetib kelib Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatib kelayotgan xalq cholg'ulari muzeyida saqlanib kelmoqda [1]

XIX asrning ikkinchi yarmi XX arning boshlarida barcha o'zbek xalq cholg'ulari qatori chang cholg'usi xam musiqiy ijrochilik amaliyotida keng qo'llanila boshladi.

Uztoz shogirt an'analari natijasida moxir chang cholg'uchilari yetishib chiqqan davr xam bo'lgan. Marg'ilonlik Usta Olim Komilov, Namanganlik Usta Ro'zimat Isamatov, Xorazmlik Matyusuf Xarratov, Toshkentlik Faxriddin Sodiqov shular jumlasidan.[2]

Xorazmda mashhur xalq sozandasasi, bastakor Matyusuf Xarratov chang takomillashtirish ustida sabot bilan ishlashadi. Izlanishlar natijasida Matyusuf Xarratov sozandalar Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarratov va Axmadjon Odilovlar bilan xamkorlikda changing yuqori pardalarini qo'shimcha torlar va xarraklar xisobiga kengaytiradi.

Chang cholg'usining yangi nusxalarini yaratish Sa'natshunoslik instituti tasarrufidagi musiqa ustaxonasining ustalari: U.Zufarov, Z.Zokirov, S.Y.Dedenkolarning zimmalariga yuklanadi. Yangi nusxadagi chang taniqli ijrochi xamda tatqiqotchi –Ashot Ivanovich Petrosiyans tashabbusi bilan Toshkent musiqa bilim yurtida va u raxbarlik qilayotgan O'zbekiston Davlat Filarmoniyasining o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida sinaladi va ma'qullandi(1943 y.).[3]Natijada chang cholg'usi ta'lim tizimiga kiritilgan.

Shoakbar Shoakramov, Abdusamat Ilyosov, Ashraf Ashrapov, Muxammadjon Rasulov va Axmad Odilovlar o'quv dargohida ta'lim olgan birinchi ijrochilardan bo'lishadi. A.I.Petrosiyans rahbarligi ostida bir guruh soz ustalari va sozandalar : Usta Usmon Zufarov ,S.Y Dedenko, M.Xarratov , A.Odilov. F. Xarratov chang cholg'usini yanada takomillashtirishga erishadilar.

Uning tovushqator tizimi asosiga xramotik tovushqator, ya'ni o'n ikki bosqichli ravon oraliqlarga bo'lingan tovushqator qabul qilinadi.[4]

Takomillashtirish natijasida chang cholg'u asbobi kichik oktava Sol notasidan uchinchi oktava Sol# notasigacha keltiriladi. Keyinchalik ijro jarayonidagi tiniqlikni saqlash uchun chang asbobiga tepki (pedal) qo'yiladi.

Ilmiy izlanishlar natijasida chang cholg'u asbobining oilasi yaratiladi.

Chang- prima

Chang-pikkolo

Chang-tennor

Chang-bas bu cholg'u asboblarida yuqori, o'rta va past registrlarda ijro etish mumkin. Chang asboblarining xar birining o'ziga xos ovoz imkoniyatlari va o'ziga xos jarangdorliklari mavjud.

Chang cholg'u asbobining aynan o'ziga tegishli ijro imkoniyatlari(shtrixlari) mavjud.

Pizz col legno -(pizz.col.legno) chopning orqa yassi qismi bilan tirnab (chertib) chalish.

Pizzicato (pizz)- qo'l barmoqlari bilan chang torlarini mayin chertib chalish.

Col legno (Cho'p tarak) cho'pning orqa yassi tarafi bilan torlarni chiqqilatib urib chalish.

Stakkato con surdino(bo'gmali)- chang asbobida surdino shtrixi xam mayjud bunda ijrochi bir qo'li bilan notani urib bir qo'lining barmog'i bilan jaranglayotgan notani so'ndiradi, bu bo'g'ib chalish xam deyiladi.

Stakatto (kalta urma zarba) Chang tayoqcharini torlarga urib, yengil uzib-uzib sakratma tovush xosil qilish.

Tremolo(rez) chang cho'plari yordamida birin ketinlikdagi tez- tez almashtirib urib chalish, shu holatni chang cho'pining orqa yassi tomoni bilan xam ijro etish mumkin.

Legato (bog'lama). Tovushlarni birin tekis ulab, tayoqchalar bilan torlardan torlarga uzlusiz mayin o'tib yoqimli ijro etish.

Vibrato(tebrama) Cho'p chertmak uslubini qo'llaganda ijro etilayotgan notaning yon qatoridagi nota ustiga bosib tebratiladi o'shanda vibrato hosil bo'ladi.

Glissando (tayoqchalarni sirg'atish) bu ijro usuli cho'pning orqa yassi qismi bilan birinchi notadan ikkinchi notagacha , pastdan yuqoriga sirg'atib ijro etiladi.

Chang cholg'u asbobining o'ziga xos murakkabliklari bo'lib, xar qanday musiqachi xam chang cholg'usini osonlik bilan o'zlashtira olmaydi. Buning uchun ijrochidan o'ta sabrli bo'lish, ko'proq mehnat qilish, olloh tomonidan berilgan iqtidor bo'lishi lozim. Insondagi bu fazilat va qobilyatlar nafaqat chang cholg'u asbobini ijro etishda, balki san'atning barcha turlarilarida zarur va lozim.

Ollohdan berilgan qobilyat aynan san'at xalqining orasida tutgan o'rni beqiyos chunki san'at sohasi tushunishdan ko'ra ko'proq xis qilishni ta'lab etadi, shuning uchun olloh bergen qobilyat bo'lsa san'atkor xar tomonlama gullab yashnaydi.

Yana xalqimizda bir gap bu "qondan -qonga" o'tadi, degan gapning zamirida xam juda chuqur ma'no yotibdi.

Aynan shunday misollarni ixtisoslashtirilgan san'at mакtabablar misolida oladigan bo'lsak, ixtisoslashtirilgan san'at mакtabi o'quvchilarining juda ko'pchiligi bu dargohga kelishga qadar ularning musiqa ko'nikmalari yetarlicha bo'lib ular bilan darslar olib borish va ixtisoslashtirilgan san'at mакtabi ta'lablarini bajarish anchayin oson.

Hozirgi vaqtida ixtisoslashtirilgan san'at mакtabida o'quv jarayonlari 2-yil davom etadi, shuni e'tiborga olib xam qabul jarayonida aynan ixtisoslashtirilgan san'at mакtabiga qadar musiqa mакtabini tugatgan o'quvchilarini qattiy intizom asosida imtihonlar tashkil e'tish maqsadga muofiq bo'lar edi.

Ixtisoslashtirilgan mакtabga qadam qo'ygan o'quvchilar mustaqil ravishda nota o'qiy olishi nazariy bilimlari yetarli bo'lishi, ritm xis qila olishi, zarur bo'lgan barcha ko'nikmalar o'quvchilarda shakillangan bo'lsa o'quvchi bilan ishlash anchayin oson va samarali bo'lishiga olib kelib o'quvchining ijodiy parvozi xam sezirarli oshadi.

Kelajakda o'quvchi oliy ta'lim muassasalariga kirish imkoniyati yanada yuqori bo'ladi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasiga kirish uchun xam o'quvchi yuqori darajada tayyor bo'lishi lozim. Bunda ixtisoslashtirilgan san'at mакtabida oлган bilim va ko'nikmalarning o'rni beqiyos.

Ixtisoslashtirilgan san'at mакtabida xozirgi kunda turli xil yo'nalishlar mavjud bo'lib, misol uchun "Xalq cholg'ularida ijrochilik" bo'limida turli xil milliy cholg'ularimiz bilan turli xil o'zbek kuylarini va murakkab chet el kompazitorlari kuylarini ijro etish mumkin.

Hozirgi kunda milliy cholg'ularimiz bilan juda ko'pchilik yoshlar dunyoni lol qoldirib jahon kompazitorlarini asarlarini yuqori mahorat bilan ijro etib kelishmoqda.

O'zbek xal cholgularining malikasi xisoblangan "chang" cholg'u asbobi xam ixtisoslashtirilga san'at maktablarida yuqori darajada malakali o'qituvchilar tomonidan o'rgatib kelinmoqda.

Ilmiy ishimiz mavzusidan kelib chiqan xolda ixtisoslashtirilgan san'at matabining aynan "chang" cholg'u asbobini ijro etadigan o'quvchilar uchun qator tavsiya va metodlar ishlab chiqdik.

Birinchidan- chang cholg'u asbobini ijro etishdan oldin cholg'u asbobini to'g'ri sozlashni boshidan to'g'ri o'rganish lozim, chunki o'quvchining eshitish qobiliyati boshidan yaxshi shakillanishi uchun, sababi chang cholg'u asbobining torlari metaldan yasalgan bo'lib juda ko'p yuk tortadi ya'ni shu 75 ta torning tortilishi 24 – 25 tonna yuk tortadi .

Shu sababli chang cholg'u asbobini sozlash juda xam zarur ba'zi chang cholg'u asboblarini deyarli xar 5- 10 daqiqada sozlashni talab etadi , shu sababli ijrochining o'zi musiqa asbobini mustaqil sozlay olsa orkestr, ansanbl, yakka ijro vaqtida, konsertlarda, konkurslarda o'zining ijro sifati darajasini oshishiga va eshitish qobiliyatining o'sishiga yordam beradi.

Faqatgina o'quvchi bunda hozirgi zamonaviy sozni aniq ko'rsatadigan qurilmalar "Tuner" dan foydalanmay, fortepiano asbobining oldida o'tirib bitta-bitta notalarni eshitib chang sozi torlarini shu notalarga moslab sozlasa o'quvchining eshitish qobiliyati yanada oshadi.

Ikkinchidan –Tog'ri o'tirish(pastanovka) qoidasi birinchi o'rinda turadi.

To'g'ri o'tirish va to'g'ri tayoqchalarni to'g'ri ushlab chalib ,kistlarni to'g'ri ochishni shakillantirish muhimdir. To'g'ri ijroni shakillantirish cholg'uchiga butun umr xizmat qiladi ya'ni boshida to'g'ri shakillantirilgan ijro holati (pastanovka) ijrochining ijodiy hayot yo'lining parvozini belgilab beradi.

Uchinchidan-o'quvchilarning nazariy bilimlari a'lo darajasida bo'lishi lozim . Misol uchun nota o'qish savodi, musiqa nazariyasi, garmoniya, solfedjo,drijorlik yana bir qancha fanlarni mutaxasislik asbobi bilan bir qatorda olib borilishi maqsadga muofiq.

To'rtinchidan-to'g'ri gammalar ijro etish xam o'quvchining ijro mahoratini o'sishiga olib keladi. O'quvchilar ko'proq xramatik tovush qatorli gammalar va mashqlar ijro etishni tavsiya etgan bo'lardim, sababi sozandaning qo'llalari chang sozining torlar orasidagi oraliq masofani yaxshi biladi va qo'llarda ijroga nisbattan ko'nikma xosil bo'ladi, shunda ijrochining ijrosida "falsh" notalar deyarli uchramaydi.

Gammalarni chalishda xilma-xillikga amal qilish yaxshi foyda beradi

Chang cholg'u asbobining ustini mato bilan notalarni quloq yordamida eshitib chalish xam juda katta samara beradi. Ijrochining parvozi zamirida katta mehnat yotadi. Mashhur kompazitorlardan biri aytganidek 99% qobiliyat bo'lsayu 1% mehnat bo'lmasa 99% lik olloh bergen qobiliyat samarasi behuda ketadi. Shu sababli barcha san'at olami vakillari mehnat qilishdan tolmaydilar zero mashhurlik va professionalik zamirida katta mehnat yotadi.